

MAKTABGACHA TA'LIMDA SHE'RIY ASARLARNI O'RGATISHNING SAMARADOR USULLARI

Rajabova Yulduz Matqurbon qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6974003>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limda she'riy asarlarni o'rganishning samarador usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: nutq, pedagog, obrazlik usuli, she'riy asarlar, tahlil usuli, ehtiyotkorlik usuli.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПОЭЗИИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье представлена информация об эффективных методах изучения поэзии в дошкольном образовании.

Ключевые слова: речь, педагог, образный метод, поэтические произведения, метод анализа, осторожный метод.

EFFECTIVE METHODS FOR TEACHING POETRY IN PRESCHOOL EDUCATION

Abstract. This article provides information on effective methods for studying poetry in preschool education.

Keywords: speech, teacher, figurative method, poetic works, analysis method, careful method.

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'limga katta e'tibor qaratilmoqda. MTT tarbiyalanuvchilarining har tomonlama barkamol rivojlanishida boshqa mashg'ulotlari bilan birgalikda nutq o'stirish mashg'uloti ham alohida ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Nutq o'stirish mashg'uloti orqali bolalarning nutqi to'g'ri, ravon va mazmunli bo'lishi ta'minlanadi. Bu o'rinda tarbiyachi pedagog mahorati yetakchi ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulot jarayonida tarbiyachining eng asosiy maqsadi bolalarda she'riy asarlar haqidagi ma'lumotlarni berish va uni o'rgatishdan iboratdir. Bolalarga o'rgatiladigan har bir she'r ularda bir olam tasavvur uyg'otadi. She'riy asarlarni bolalarda o'rgatishda ularning yosh va boshqa ko'rsatkichlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulot mavzusiga mos she'riy asarni to'g'ri tanlay olish esa pedagogning ijodiy qobiliyatiga bog'liqdir. Yurtimizda juda ko'plab bolalar shoirlari mavjud bo'lib bolalar she'riyatiga o'zining munosib hissasini qo'shgan shoirlardan biri bu Po'lat Mo'mindir. U 1922- yolda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1992- yolda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" deya e'tirof etilgan. Po'lat Mo'minning bolalarda bag'ishlangan asarlariga misol qilib, "Tish cho'tkasi ertagi", "Ertakdan ertakka", "Bolajon bolajonim" kabi she'r va ertaklar to'plamlarini keltirishimiz mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI

She'r o'rganish orqali bolalarning eshitish konsentratsiyasi shakllanadi. Shuning uchun bolalarga she'riy asarlarni o'rgatishning eng samarador usullarini qo'llashimiz zarur. Quyida bir necha usullarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

1. "Ehtiyotkorlik" usuli

Bu usulda biz ko'proq bolalarning qiziqishiga mos, ularga yoqadigan materialni tanlay olishimiz zarur. Chunki bola o'zi uchun qiziqarli bo'lgan narsani tezroq o'rganib oladi.

2."Tahlil" usuli.

Bunda she'riy asardan joy olgan har bir yangi so'zning ma'nosini tushuntirib berish orqali she'riy asarning o'rganilish samaradorligini oshirishimiz mumkin.

3."Obrazlilik" usuli.

Bu usul she'rni o'qish jarayonida ohang, intonatsiya, mimika va qo'l harakatlariga e'tibor qaratishni ta'lab etadi. Bu orqali bolada she'riy asarning mazmuni haqida kengroq tasavvur shakllanishiga sababchi bo'lamiz.

Na'muna tariqasida Po'lat Mo'minning "Kitob o'qigan bola" she'rini keltiramiz.

Kitob o'qigan bola

O'rganar avval odob

Kitob o'qigan bola.

Yuzi bo'ladi oftob

Kitob o'qigan bola.

Hurmat qilar kattani

Kichiklar jon-u tani

Bajaradi va'dani

Kitob o'qigan bola.

Bu she'rni yuqorida berilgan tavsif va berilgan usullar bo'yicha tahlil qilib ko'ramiz. Eng avvalo, "Ehtiyotkorlik" usulini tatbiq qilgan holda bu she'rni tahlilga tortamiz. Po'lat Mo'minning bu she'rida ayni bolalarga mos beg'uborlik ifodalangan. Shoir bolajonlarni o'z ilmlari orqali jamiyatda yetuk shaxs bo'lib yetishishiga da'vat qilmoqda.

MUHOKAMA

Endi "Tahlil" usuli bo'yicha bu she'riy matni tahlil qilamiz. Bunda she'r tarkibidagi bolaga notanish bo'lgan so'zlar ma'nosi bola tushunadigan tarzda tahlil qilinadi. Masalan:

1.Odob- Nima uchun Sobirjonni yaxshi bola deymiz. Chunki u odoblidir.

2.Kitob- Biz bo'lgan buyuk bobolarimiz juda ko'p kitob o'qishgan.Demak kitob insonning yoshligidan boshlab to'g'ri yo'lga yetaklaydi.

3.Oftob- Kattalar uni Quyosh bobo deb ham aytishadi. U juda mehribon....

Bu she'riy matndagi so'zlarning ma'nosini o'rgangan bola uchun uni yod olish juda oson kechadi va bolaning xotirasida ham ko'p vaqtgacha saqlanib qoladi.

"Obrazlilik" usulini quyidagicha qilishimiz mumkin. She'riy matni badiiy o'qish qoidalari asosida tarbiyachi tomonidan o'qib eshittiriladi. Bolalarda eshitish xotirasi kuchli bo'lganligi sababli ham ular ifodali qilib o'qigan she'rni tezda yodlab olishadi. Bizningcha yuqoridagi uslublar badiiy matnlarni bolajonlarga o'rgatishda o'z samarasini berishi mumkin.

XULOSA

Bu usullarni qo'llagandan so'ng bolajonlar bilan qisqa savol-javoblar o'tkazish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan savol-javob quyidagi ko'rinishda o'tkazilishi mumkin.

O'rganar avval odob

Kitob o'qigan bola.

"Bolajonlar kitobni yaxshi ko'rgan va uni o'qiy olgan bola avvalo nimani o'rganib oladi ekan?" tarbiyachi mana shu savol bilan tarbiyalanuvchilarga murojaat qiladi. Bolalarning javobi albatta "Odob" bo'ladi. Tarbiyachi bolajonlarni to'g'ri javob uchun albatta rag'batlantirib boradi.

Shu tariqa savol-javob davom etadi. Tarbiyachi bolajonlarlardan kitob o'qigan bola yana qanday fazilatlarga ega bo'lishini so'raydi. Bolajonlar kitob o'qigan bola kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilishini, yuzi oftobdek kulib nur yog'ilib turishini aytishadi. Tarbiyachi qo'shimcha sifatida va'dani ustida chiqmaslik juda yomon ish ekanligini va kitob o'qigan bola hech qachon bunday ishga qo'l urmasligini aytib o'tadi va savol-javob o'z nihoyasiga yetadi. O'ylaymizki, ushbu uslublar Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari uchun ayni muddao va yaxshi samara berad degani umiddamiz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari 2018yil
2. Sodiqova Sh.A. « Maktabgacha pedagogika. » – T, 2018
3. www.ziyonet.uz internet sayti.
4. www.fayllar.org internet sayti.
5. Kharaxonova L. M. SPECIFIC ASPECTS OF MEDIA EDUCATION AND ITS USE IN HIGH SCHOOLS //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. CSPI conference 3. – C. 278-284.
6. Karakhanova L. M. USE OF MEDIERE RESOURCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF BIOLOGY IN SCHOOLS //International Scientific Review of the problems of pedagogy and psychology. – 2018. – C. 68-70.
7. Karakhanova L. M. Using the electronic educational resources in biology lessons //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY. – 2019. – C. 35-39.
8. Jurayev, R. K., & Karakhanova, L. M. (2020). Scientific And Methodical Bases Of The Use Of Electronic Educational Resources In Teaching Biology In General Educational Schools.